



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
VAZIRLIGI



Respublika
Ta'lim Markazi

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

**2022–2023-O'QUV YILIDA UMUMIY O'RTA TA'LIM
MAKTABLARINING 11-SINF O'QUVCHILARI UCHUN
O'ZBEKISTON TARIXI FANIDAN YAKUNIY DAVLAT
ATTESTATSIYASINI O'TKAZISH BO'YICHA METODIK
TAVSIYA VA MATERIALLAR**



TOSHKENT – 2023

Imtihon materiallari Respublika ta'lim markazi huzuridagi tarix fani ilmiy-metodik kengashining 2023-yil 25-martdagi 1-sonli qarori asosida foydalanishga tavsiya etildi.

Tuzuvchilar:

F. Mahmudova – Respublika ta'lim markazi ijtimoiy fanlar va ijodiy ko'nikmalarni rivojlantirish bo'limi boshlig'i.

N. Hakimov – Respublika ta'lim markazi metodisti.

A. Omonov – Respublika ta'lim markazi metodisti.

Taqrizchilar:

Sh. Ergashev – O'zR FA Tarix instituti katta ilmiy xodimi, t.f.n., dotsent.

E. Abdumannatov – SamDU Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti, fakultetlararo pedagogika kafedrasida o'qituvchisi, PhD.

J. Mustafoyev – NavDPI Tarix o'qitish metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi.

E. Saidov — Xorazm viloyati Urganch tumanidagi 19-sonli umumta'lim maktabi oliy toifali tarix fani o'qituvchisi.

Q. Exsonov – Toshkent shahar Yangiayot tumani 332-sonli umumta'lim maktabi oliy toifali tarix fani o'qituvchisi.

Muharrirlar:

O. Y. Musurmonkulova – Respublika ta'lim markazi metodisti.

X. Baxtiyorova – Respublika ta'lim markazi metodisti

TARIX 11-SINF

2022–2023-o‘quv yilida umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 11-sinflarida tarix fanidan yakuniy attestatsiya ushbu tavsiya etilgan imtihon materiallari asosida og‘zaki shaklda o‘tkaziladi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari metodbirlashmalarining yig‘ilish qaroriga muvofiq yakuniy imtihon materiallariga 15%–20% gacha o‘zgartirishlar kiritishi mumkin. Shuningdek, tarix fani chuqurlashtirib o‘qitiladigan sinf va maktablarda imtihon biletleri 4 ta savoldan iborat bo‘ladi. Tarix fani chuqurlashtirib o‘qitiladigan sinf va maktablarning imtihondagi to‘rtinchi savollari o‘qituvchi tomonidan tuzilib, maktab metodbirlashmasi tomonidan tasdiqlanadi.

Tarix fanidan yakuniy attestatsiya imtihonlari uchun taklif etilayotgan mazkur topshiriqlar umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari asosida tayyorlangan. Ushbu topshiriqlar biletlarda aks ettirilgan bo‘lib, har bir biletta uch yo‘nalishdagi mavzu asosida uchtadan savol beriladi. Topshiriqlar quyidagi mazmunda tuziladi:

1. O‘zbekiston tarixida yuz bergan tarixiy jarayonlar va amalga oshirilgan islohotlar bilan bog‘liq bo‘ladi.

2. O‘zbekiston tarixi fanida o‘rganiladigan tarixiy-me‘moriy inshootlardan biri beriladi.

3. Biletdagi uchinchi topshiriq ilm-fan va madaniyat rivojiga hissa qo‘shgan tarixiy shaxslardan biri haqida bo‘ladi.

Birinchi savol bo‘yicha o‘quvchilarning bilimlari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

T/r	Baholash mezonlari	Ball
1	Tarixiy voqeani yuz bergan vaqti va sababini ayta olishi	1 ball
2	Jarayon yoki islohotlar tashabbuskori (tashabbuskorlari)ni faoliyatini bilishi	1 ball
3	Amalga oshirilgan jarayon yoki islohotlarning mohiyatini yoritib berishi	1 ball
4	Jarayon yoki islohotlar bo‘lgan davrdagi shart-sharoitlar va oqibatlari hamda voqeani qayerda sodir bo‘lganligini zamonaviy xaritadan ko‘rsata olishi	1 ball
5	Jarayon yoki islohotlar yuzasidan o‘quvchi mustaqil fikrini bildira olishi	1 ball
Jami:		5 ball

Ikkinchi savol bo‘yicha o‘quvchilarning bilimlari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

T/r	Baholash mezonlari	Ball
1	Me‘moriy inshoot sanasi yoki davrini to‘g‘ri aytishi	1 ball
2	Me‘moriy inshootni qurdirgan shaxs yoki shaxslarni bilishi	1 ball
3	Me‘moriy inshootning qayerda joylashganligini (zamonaviy xarita orqali) ko‘rsata olishi	1 ball
4	Me‘moriy inshootning o‘ziga xos ko‘rinishi, ya‘ni me‘morchilik uslublarini tasvirlay olishi	1 ball
5	Me‘moriy inshootning vazifasini to‘g‘ri ayta olishi	1 ball
Jami:		5 ball

**Uchinchi savol bo'yicha o'quvchilarning bilimlari quyidagi mezonlar
asosida baholanadi:**

T/r	Baholash mezonlari	Ball
1	Tarixiy shaxsning yashagan yillari (yoki davri)ni to'g'ri aytishi	1 ball
2	Tarixiy shaxsning hayoti haqida xronologik tarzda ma'lumot berishi	1 ball
3	Qaysi fan yoki madaniyat sohalarida ijod qilganligi haqida ma'lumot berishi hamda dunyo sivilizatsiyasidagi o'rnini bilishi	1 ball
4	Tarixiy shaxsning asarlari yoki amalga oshirgan ishlarini aytib o'tishi	1 ball
5	Tarixiy shaxsning insoniyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasi haqida fikr bildirishi	1 ball
Jami:		5 ball

Izoh: har bir yo'nalish bo'yicha ballar yaxlitlanib (bunda yaxlitlangan ball 4,5 dan past bo'lsa "4" baho, yuqori bo'lsa "5" baho. Masalan: $5+4+5=14:3=4,6$ yaxlitlansa "5" baho, $4+4+5=13:3=4,3$ yaxlitlansa "4" baho), yakuniy attestatsiya imtihoni sinovining yakuniy bali sifatida sinf jurnalining "O'zbekiston tarixi" sahifasiga qo'yiladi.

O'quvchilarga bilet olganlaridan keyin tayyorgarlik ko'rishlari uchun 20 daqiqa vaqt beriladi.

Imtihon topshirish jarayonida o'quvchi o'z fikrini faqat darslik materiallari asosida emas, balki boshqa manbalarga tayangan holda ham bayon qilishi mumkin.

1-BILET

1. O‘zbekiston SSRning tashkil topishi.
2. Nurillaboy saroyining o‘ziga xos me‘moriy uslublari haqida gapirib bering.
3. Mahmud Zamaxshariyning O‘rta Osiyo diniy ilmi rivojida o‘rni.

2-BILET

1. Besh muhim tashabbusni joriy etilishi.
2. Sitorai Mohi Xosa haqida ma‘lumot bering.
3. Sharq adabiyoti rivojida Mirzo Abdulqodir Bedilning tutgan o‘rni.

3-BILET

1. 1916-yildagi “Jizzax qo‘zg‘oloni” va uning oqibatlari haqida ma‘lumot bering.
2. “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” memorial majmuasi haqida ma‘lumot bering.
3. Abdulla Qodiriyning ilmiy merosida tarixiy voqealarni yoritilishi.

4-BILET

1. “Anqara jangi” va uning oqibatlarini Yevropa taraqqiyotiga ta‘siri haqida ma‘lumot bering.
2. Minorayi Kalon me‘moriy yodgorligi va ushbu inshootning vazifasi haqida ma‘lumot bering.
3. Turkiy adabiyot namoyondasi Yusuf Xos Hojib hayoti va faoliyati.

5-BILET

1. BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasini o‘tkazilishi va undagi prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning nutqi haqida ma‘lumot bering.
2. Mir Arab madrasasi va uning o‘lkamiz me‘morchiligidagi o‘rni haqida ma‘lumot bering.
3. Amir Temur buyuk davlat arbobi va yetuk sarkarda.

6-BILET

1. Ismoil Somoniy davlatining tashkil topishi va uning o‘ziga xos davlat boshqaruvi haqida ma‘lumot bering.
2. Muhammad Rahimxon madrasasi haqida ma‘lumot bering.
3. Ahmad Donish hayoti va faoliyati.

7-BILET

1. Xiva xonligining tashkil topishi va uning davlat boshqaruvida Buxoro xonligidan farqli jihatlari.
2. “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” memorial majmuasi haqida ma’lumot bering.
3. Xoja Bahouddin Naqshbandiy – naqshbandiya tariqatining asoschisi.

8-BILET

1. Turkiston Muxtoriyati hukumatining tashkil topishi va uning milliy mustaqillik yo‘lidagi harakatlari.
2. Ichanqal’a me’moriy yodgorligining o‘ziga xos vazifasi haqida ma’lumot bering.
3. Asrlarga tatigan daholik – Abu Ali ibn Sino hayoti va faoliyati.

9-BILET

1. “Loy jangi” haqida ma’lumot bering.
2. Toshkentdagi Ko‘kaldosh madrasasi va uning ilm-fan rivojidadagi roli haqida ma’lumot bering.
3. Abdulla Avloniy – o‘zbek milliy maktabi asoschisi.

10-BILET

1. Shayboniylar davlatining tashkil topishi va unda davlat boshqaruvining o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumot bering.
2. “G‘alaba bog‘i”ning bunyod etilishi va uning yoshlar ongida tarixiy tafakkurni rivojlantirishdagi o‘rni haqida ma’lumot bering.
3. Abulg‘ozi Bahodirxon faoliyati.

11-BILET

1. Qo‘qon xonligining tashkil topishi va uning o‘ziga xos davlat boshqaruvi haqida ma’lumot bering.
2. Tillakori madrasasining sharq me’morchiligidagi o‘rni haqida ma’lumot bering.
3. Abu Nasr Farobiyning ilmiy merosi va uning dunyo sivilizatsiyasidagi o‘rni.

12-BILET

1. Buxoro xonligida Ashtarxoniylar sulolasining taxtga kelishi va sulola davridagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot bilan Shayboniylar sulolasi davrini taqqoslang.
2. Mir Arab madrasasining o‘lkamiz me’morchiligidagi o‘rni haqida ma’lumot bering.
3. Ma’rifatparvar olim Abdurauf Fitrat hayoti va faoliyati.

13-BILET

1. Qoraxoniylar davlatining tashkil topishi va uning davlat boshqaruvidagi o'ziga xos jihatlari.
2. Registon ansamblining o'ziga xos qurilish uslubi haqida ma'lumot bering.
3. Turdi Farog'iy hayoti va ijodi.

14-BILET

1. Mahmud Torobiyning yurt ozodligi yo'lidagi jasorati haqida gapirib bering.
2. "G'alaba bog'i"ning bunyod etilishi va uning yoshlar ongida tarixiy tafakkurni rivojlantirishdagi o'rni haqida ma'lumot bering.
3. Alisher Navoiy ijodi va uning bunyodkorlikka qo'shgan hissasi haqida gapirib bering.

15-BILET

1. Ilm-fan markazi — "Ma'mun akademiyasi"ning tashkil topishi.
2. Ulug'bek rasadxonasi va undagi ilm-fanning rivoji haqida ma'lumot bering.
3. Munavvar Qori Abdurashidxonov – O'rta Osiyo jadidchilik harakatining yo'l boshchisi.

16-BILET

1. O'zbekistonda — milliy valyutaning qabul qilinishi va uning tarixiy ahamiyati.
2. Temuriylar tarixi davlat muzeyining boshqa muzeylardan o'ziga xos farqli jihatlari aytib bering.
3. Atoqli shoir – Ajiniyoz Qo'siboy o'g'li ijodi haqida.

17-BILET

1. Mard o'g'lonlar maskani – "Temurbeklar maktabi"ning tashkil etilishi.
2. Temuriylar tarixi davlat muzeyining boshqa muzeylardan o'ziga xos alohida va farqli jihatlari aytib bering.
3. Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy hayoti va faoliyati.

18-BILET

1. Buxoro amirligining tashkil topishi va uning davlat boshqaruvining Buxoro xonligidan farqli hamda o'xshash jihatlari.
2. Sherdor madrasasi me'morchiligining o'ziga xos uslublari haqida ma'lumot bering.
3. Davlat va jamoat arbobi Sharof Rashidovning hayot yo'li.

19-BILET

1. O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasining tashkil topishi haqida ma’lumot bering.
2. Ulug‘bek rasadxonasi va uning ilm-fan rivojidadagi roli haqida ma’lumot bering.
3. Najmiddin Kubroning Vatan ozodligi yo‘lidagi harakatlari.

20-BILET

1. Amir Temurning Movarounnahrni egallashi.
2. “G‘alaba bog‘i”ning bunyod etilishi va uning yoshlar ongida tarixiy tafakkurni rivojlantirishdagi o‘rni haqida ma’lumot bering.
3. Imom Buxoriyning hadis ilmi taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi.

21-BILET

1. O‘zbekiston hududidagi qoyatosh suratlarining paydo bo‘lishi.
2. Ismoil Somoniy maqbarasining o‘ziga xos me’morchilik uslublari haqida ma’lumot bering.
3. “Hirot maktabi” asoschisi Kamoliddin Behzodning ijodi haqida.

22-BILET

1. O‘zbekistonning mustaqillikka erishishi va uning tarixiy ahamiyati.
2. Ulug‘bek madrasasi (Samarqand)ning o‘ziga xos jihatlari haqida ma’lumot bering.
3. Ma’rifatparvar ayol Mohlaroyim – Nodira hayoti va ijodi.

23-BILET

1. Buxoro xonligini tashkil topishi va uning davlat boshqaruvida Xiva xonligidan farqli jihatlari.
2. Xudoyorxon saroyi haqida ma’lumot bering.
3. Ahmad al-Farg‘oniyning dunyo ilm-fan rivojiga qo‘shgan hissasi.

24-BILET

1. Ikkinchi jahon urushi va unda xalqimizning g‘alabaga qo‘shgan hissasi.
2. Sherg‘ozixon madrasasining o‘ziga xos me’morchilik uslublari haqida ma’lumot bering.
3. Shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti.

5-BILET

1. O‘zbekiston va YUNESKO: tarixiy yodgorliklarni saqlab qolish haqida ma’lumot bering.
2. O‘rta Osiyo me’morchiligining noyob durdonasi Go‘ri Amir maqbarasi haqida ma’lumot bering.
3. Yulduzlar va sayyoralar izlovchi – Mirzo Ulug‘bek.

26-BILET

1. Harakatlar strategiyasi va uning mohiyati.
2. Buxoro arki haqida ma’lumot bering.
3. Amir Umarxon hayoti va faoliyati.

27-BILET

1. Yunon-makedon istilochilariga qarshi ozodlik harakati – Spitaman qo‘zg‘olonining sodir bo‘lishi.
2. Baroqxon madrasasining o‘ziga xos me’morchilik uslublari haqida ma’lumot bering.
3. Berdaq — qoraqalpoq adabiyotining asoschisi.

28-BILET

1. Movarounnahrda arab xalifaligining o‘rnatilishi va uning o‘lkadagi o‘ziga xos davlat boshqaruvi.
2. Dishan qal’a me’moriy yodgorligining o‘ziga xos vazifasi haqida ma’lumot bering.
3. Mashhur fiqhshunos olim Burhoniddin al-Marg‘inoniy hayoti va faoliyati.

29-BILET

1. Xorazmshohlar davlatining tashkil topishi.
2. Nurillaboy saroyining o‘ziga xos me’moriy uslublari haqida gapirib bering.
3. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy — buyuk qomusiy olim.

30-BILET

1. MDHga O‘zbekistonning a’zo bo‘lishi.
2. Ichanqal’a me’moriy yodgorligining o‘ziga xos vazifasi haqida ma’lumot bering.
3. Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi Mahmudxo‘ja Behbudiy faoliyati.